



SUQRROT FALSAFASIDA SIYOSAT VA DAVLAT MASALALARI

Zarpullayeva Mohira

filologiya va tillarni o'qitish o'zbek tili yo'nalishi 3-kurs talabasi

Mustafoqulova Sohiba

Filologiya va tillarni o'qitish o'zbek tili yo'nalishi 3-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7456198>

ARTICLE INFO

Received: 10th December 2022

Accepted: 18th December 2022

Online: 19th December 2022

KEY WORDS

G'arb falsafasi, Suqrot, Jon Jak Russo, Abu Rayhon Beruniy

ABSTRACT

Jamiyat va insoniyat o'rtasidagi bog'liqliklar, olamning yaralishi, insoniyat tafakkuri va boshqa ko'plab bilimlarni puxta o'r ganishga intilgan donishmand Suqrot, davlat va siyosat borasidagi o'z qarashlari bilan falsafa tarixida chuqur iz qoldirgan. Uning bu boradagi fikr-mulohazalari, qarashlari boshqa faylasuflarning ham o'z bilimlarini asoslashda xizmati katta bo'lgan.

Jumladan u mashhur faylasuf Platonga ustozlik qilgani ma'lum. Shuning uchun ham ular ilgari surgan g'oyalar shuningdek davlat va siyosat masalalaridagi qarashlari o'zaro o'xshashliklarni keltirib chiqarsada, har ikkala donishmandning ham fikrlari bir biridan qiziqarliligi bilan e'tiborni jalb etaveradi.

.Shunday qilib Suqrotning davlatni boshqarishda nimalarga ahamiyat berish kerakligi, davlatni qanday kishilar boshqarishi, umuman siyosatchi ham, uy boshqaruvchisi ham, rahbar xodim ham bu borada qanday bo'lishi muhumligi haqida o'z bilimlarini bayon etib qoldiradi.

1[Suqrot, davlatni bilimli, donishmand odamlar boshqarishi kerak deb uqtiradi. Uning fikriga ko'ra davlatni taxtga ega bo'lgan yoki aslzodalar saylanganlar, hatto, qur'a tashlab yutganlar yoki ko'pchilik tomonidan saylanganlar ham emas, balki boshqarishni bilganlar boshqarsin] deydi. U bu orqali urug'-aymoqchilikdan, ko'pchilik tomonidan uning bilimidan xabardor bo'lmay saylanadigan boshliqlarni rad etadi. Bunday hollarda davlat tepasiga o'z-o'zidan bilimsiz, johil kishilarni chiqarib qo'yish mumkinligi haqida so'z yuritadi.

.Suqrot siyosat haqida so'zlar ekan, u bevosita nafshi tiya bilish, boylikka o'ch bo'lmaslik va zohidona umr kechirish haqida to'xtaladi va u [" O, hayotda kerak emas narsalar qanchadan-qancha!... -deb xitob qiladi u, -meyordan ortiq -hech nima!]"] Deya da'vat qiladi.

.Suqrotning hayot tarzi ham o'z fikrlariga hamohang tarzda kechgan deyish mumkin. Sababi uning turmushidagi holati o'zi aytgan so'zlarga qarshi chiqmaydi. Suqrot bir umir darveshon hayot kechirad. [Oyoq yalang, titilib ketgan kiyimidan boshqa hech vaqosi yo'q, darvessifat Suqrotning turmush tarzi o'zini yuqori tabaqa, deb biluvchi aslzodalar va erkin fuqarolarning g'ashiga tegmasligi mumkin emas edi. O'ziga e'tibor bermaydigan, suxbatdishining nasl nasabini mutlaqo hisobga olmaydigan,

savollari bilan duch kelganni so'roqqa tutib, uni mulzam qilishdan tortinmaydigan gadosifat shaxsning xatti-harakati o'zini dono hisoblaydigan takabbur afinaliklar uchun haqoratdek edi.]

Suqrot o'zini haqiqatni baralla aytishdan tiymagan. Shuning uchun ham uning hukumatdagi dushmanlari anchaginani tashkil etgan. Suqrot bilimning oxiri yo'q, biroq barcha donishmandliklar egasi xudodir, faqatgina xudo haqiqiy donishmanddir degan mazmundagi xulosalarni ham bayon etadi. Biroq u o'limi oldidan xudosizlikda ayblanadi.

["Suqrot tirikligida haqu haqiqatga katta xizmat qildi, o'limi bilan esa, undan ham ibratl xizmat qildi"] degan edi Javoharla'l Neru. Suqrotning sud qilinishi jarayonidagi baxsmunozaralar haligacha davom etayotgani ma'lum.

.Shunday qilib Suqrot davlatni bilimli donishmand odamlar boshqarishi kerak deb uqtiradi. U bilimli donishmand kishilardan ezgu ishlar chiqishiga ishonadi. Biroq ma'lumki, falsafa donishmandlikni sevishdir. Bu borada Fransuz faylasufi Jan Jak Russo shunday deydi. 2[Odamni faylasuf qilishdan avval, uni inson sifatida tarbiyalash kerak. Bu uni boshqalarga yomonlik qilmaslikka o'rgatadi"].

Aslida ham go'zal insoniylik fazilatlar, nafsni tiyish atrofgaadolat ko'zi bilan boqish insonni donishmandlikka yetaklaydi.

.Biroq Suqrat donishmand bo'lishiga qaramasdan u hech narsa yozmagan. Uning falsafa tarixidagi ko'plab qarashlari, shogirdi Platonning asarlarida o'z ifodasini topgan. Suqrot garchi davlat ishlariga aralshmagan bo'lsada, u davlat ishlarini kuzatgan. Davlat va siyosat to'g'risida bilimlarni egallashga harakat qilgan.

3["Sokrat odamlar bilan suhbatlashar ekan, ularni o'zlarin ing xatti-harakatlari va hayotiy vaziyatlari xususida o'ylashga, shuningdek, ularning amallari va so'zlarini belgilaydigan asosiy tamoyillari va qarashlari haqida fikr etishga majbur etishga intilgan. Ifodali qilib aytganda, Sokrat odamlarni "Uyg'otishga" harakat qilgan. Bunday yondashuv bilimning uchinchi jihatiga mos keladi. Xuddi psixiatr singari, Sokrat ham odamlar bilan suhbat yuritganda ularning o'zları eshitgan narsalarni lozim darajada tushunib olmasdan faqat takrorlashi bilan qoniqmagan. Sokratga xos doyalik san'atiga o'xshagan dialogni olib borish usuliga ko'ra yo'naltiriladigan suhbat maqsadi uning suhbatdoshlaridan hozirgi vaqtida aytildigandek "shaxsga doir bilim"ni bilib olishdan iborat bo'lgan."]

Bu bilan Suqrot inson ruhiyatini, tafakkurini, shaxsini, bilish qobiliyatini o'rganish bilan birga kishilardan jamiyat, davlat, unda ro'y berayotgan hodisalar odamlar ongida qanday shaklda na'moyon bo'layotgani haqida ma'lumotlarga ega bo'lishni nazarda tutgan bo'lishi ham mumkin.

.Davlat va siyosat, davlatni boshqarish masalalari haqida sharqning buyuk faylasuflaridan Abu Rayhon Beruniyning ham o'ziga xos fikrlari katta ahamiyatga ega.

[4. Abu Rayhon Beruniy fuqarolarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirmoq uchun, eng avvalo, ularni zulm va istibdoddan qutqarmoq, jamiyatda tinchlik, osoyishtalik, insof va diyonatni o'rnatmoq darkor deb tushuntiradi. Fuqarolarning farovonligini ta'minlovchiadolat normalari va prinsiplariga asoslangan insonparvar jamiyatni faqat adolatli podshoh barpo

etishi mumkin, degan xulosaga keladi. Jamiyatni, ayniqsa, davlatni boshqarishda podshohning o'rni haqida to'xtalib, jamiyat podshohga xizmat qilmasdan, balki podshoh jamiyatga xizmat qilmog'i lozim, deydi. Adolatli podshoh, aziyat chekkan barcha fuqarolarning haq-huquqlarini himoya qilishi, birovlarning tinchligi, osoyishtaligi yo'lida o'z tinchligidan voz kechishi zarur. Podshohning o'zi yaratuvchanlik qobiliyati bilan ajralib turishi kerak. Hokimlar, ishboshilar tanlanganda tabiatan jamiyatni boshqarishga mayli bor, o'zining mustaqil fikri bor, o'zi qabul qilgan qarorlarning bajarilishida qat'iylik ko'rsatuvchi kishilarni tanlashga e'tiborni qaratish zarur ekanligini ta'kidlaydi. Lekin o'rta asr sharoitida podshohlik mansabi merosga aylanganini ko'rgan Beruniy, insonning jamiyatdagi o'rni, uning nasl-nasabi, ajdod va avlodlarning xizmatlari bilan belgilanishiga qarshi chiqadi.]

Yuqoridagi qarashlardan ma'lumki, Suqrot va Beruniyning davlatni boshqarishdagi fikrlari bir biri bilan o'xshashlikni taqazo etadi. Har ikki faylasuf ham podshohlikning meros bo'lib qolishini qoralaydi. Davlatga ilmli, dono, zukko, boshqaruvchilik qobiliyatiga ega kishilar boshqarishi kerakligini ta'kidlaydi. Bu esa haqiqiy donishmandlikning na'munasi hisoblanadi.

Suqrot o'z fikrlaridan kelib chiqqan holda u ezgulikni, tenglikni, adolatni ulug'laydi. Bilimsiz rahbar hodimlari ustidan kuladi. Jamiyatning, davlatning, xalqning farovon hayot kechirishini, davlat esa kuchli birlashma bo'lishini, davlat kuchli bo'lishi uchun esa, shohlar dono bo'lishi kerakligi bilan fikrlarini xulosalaydi. Qat'iyatlilikni ulug'laydi. Suqrotning garchi fe'l atvori ham kinoyali bo'lsada, u juda kechirimli shaxs bo'lgan. U o'limi oldi sud etilganda unga qo'yilgan ko'plab ayblovarda o'z do'stlarining qo'li borligini sezsada, biroq bu haqda gapirmaydi. Suqrot kuchli bilimga ega bo'lganligi bilan birga chinakam insoniylik fazilatlarga ega bo'lgan donishmanddir.

References:

1. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. Toshkent-2004. 72-73-74-75-bet. "G'arb falsafasi"
2. "Sharq" Nashriyoti-matbaa konserni bosh tahririyati Toshkent-1999 "Falsafa" 32-bet
3. "Sharq" Nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati Toshkent-2002. "Falsafa tarixi"78-bet.
4. "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti" Toshkent-2007.158bet